

PEDAGOGIK QOBILYATNING TA'LIM BERISHDAGI AHAMIYATI

Qodirxonova Dilafruz Olimxon qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti 1-bosqich magistri

Qobiliyat kishining shunday psixologik xususiyatlaridirki, bilim, ko'nikma, malakalar orttirish shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi, lekin shu xususiyatlarining o'zlari mazkur bilim ko'nikma va malakalarga taaluqli bo'lmaydi. Pedagogik qobiliyat tarixdan ma'lumki har bir o'quvchining bilimli va yetuk, komil inson bo'lishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki „Pedagogika“ so'zi bola yetaklovchi, bolani komillikka eltuvchi degan ma'nolarni anglatadi. Tarixga nazar soladigon bo'lsak, bizga ko'rinadiki bolalar tarbiyasi uchun muhim shaxs, ulug' inson sifatida qadrlanganini ko'ramiz.

Aslida qobiliyat barcha insonlarda mavjud bo'ladi, bazi qobiliyatlar yuqori ba'zilar esa quyi bo'ladi. Faqat aqli zaif insonlarda qobiliyat bo'lmaydi. Maktabda pedagoglarning faoliyati komil insonni shakillanishig qaratilgan. Bu faoliyat davomida o'qituvchidan katta pedagogik mahorat talab qilinadi. muvaffaqiyatki ishlash uchun o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. pedagogik mahoratga ega o'qituvchi katta zafarlarga erishadi. Albatta qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi qobiliyatni rivojlantirish uchun esa bizdan zehn, iste'dod, inson asab tizimida anatomik fiziologik xususiyati bo'lishi zarur. O'qituvchining ba'zi psixik jarayonlari unda shaxsga xos sifatlarni shunday tashkil qiladiki, buni pedagogik qobiliyat deb atash mumkin. Buni qobiliyatni ayrim psixik xususiyatlaridan iborat qilib qo'yish mumkin emas. Ta'lim ishlarining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun pedagog shaxsga xos bo'lgan bir qancha xususiyatlarni ham ta'minlab beradi.

Qobiliyat- shaxsning muayyan faoliyati yuzasidan layoqati va uning kasbini muvaffaqiyatli bajarishdagi sub'yektiv shart – sharoitlarni ifodalovchi individual psixik xususiyatlaridir.

Pedagogik qobiliyat – bu bolalar bilan ishlashga ishtiyoqi, bolalarga nisbatan muhabbati, ular bilan bo'lgan muloqotdan mamnun bo'lish bilan ifoda bo'ladigan shaxs sifatlari, qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste'dod layoqat va zehn, ya'ni inson asab tizimida anatomic fiziologik xususiyatlar bo'lishi zarur. O'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari- hajmi, kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilina olishi, safarbarligi kabilarning taraqqiy etishi bilan izohlanadi. Pedagogning amaliy faoliyatida barcha qobiliyatlar bir xil muhimlikka ega mi? Ma'lum bo'lishicha unday emas. So'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar “yetakchi” va “yordamchi” qobiliyatlarni ma'lum qiladi. Yetakchi qobiliyatlar- pedagoglar orasida o'tkazilgan ko'p sonli

so`roqlarga ko`ra pedagogik ziyraklik(kuzatuvchanlik), didaktik, tashkiliy, ekspressiv, qobiliyatlaridan iborat. Qolgan qobiliyatlar yordamchi qobiliyatlar qatoriga kiradi. O`qituvchining asosiy sifatlaridan biri, o`quvchilarga mehr muhabbat fazilati hisoblanadi. Bu o`quvchilarning qilmishlarini kechirish, ularga hushomadgo`ylik qilish degani emas, balki, talabchanlik va qattiqqo`llik, adolatlilik bilan qo`shilgan O`qituvchining asosiy sifatlaridan biri, o`quvchilarga mehr muhabbat fazilati hisoblanadi. Bu o`quvchilarning qilmishlarini kechirish, ularga hushomadgo`ylik qilish degani emas, balki, talabchanlik va qattiqqo`llik, adolatlilik bilan qo`shilgan mehr-muhabbat bo`lib, ana shu sifatga ega bo`lgan shaxs, o`zining ko`p vaqtlari va kuchini o`quvchi tarbiyasiga bag`ishlaydi. Ijtimoiy faollik va fuqarolik burchi anglash, o`qituvchi shaxsiga xos sifat hisoblanadi.

Ta`lim tarbiya berishda pedagogik mahoratning ahamiyati katta. Chunki har bir o`quvchining o`ziga xos individual sifatleri va xususiyatlaridan kelib chiqib, har biri bilan o`ziga xos va mos munosabat o`rnatish uchun albatta har bir pedagogdan talab qilinadigan eng muhim omil bu pedagoglik mahorati hisoblanadi. Maktab ta`limi tizimida o`qituvchilar o`zlarining ish faoliyatlari jarayonida turli xarakterdagi o`quvchilar bilan muloqotga kirishishlari bilan bir qatorda ularning turli xarakterdagi ota-onalari bilan ham bevosita to`qnash keladilar. Bunday vaziyatlarda pedagogika fani o`qituvchilarning o`ta darajada kamtar, sabrli, qanoatli, va albatta xushmuomala bo`lishlariga to`g`ri keladi. Chunki o`zining farzandini uning kelajak taqdirini belgilovchi bosqichini ishonchli qo`llarda ekanligiga ishonch hosil qilgan ota-ona o`z uyida farzandidan tinch holatda o`tirishini istaydi

Xulosa qilib aytganda, o`qituvchi kasbini egallagan har bir inson , nafaqat o`qituvchi , qaysi kasb egasi bo`lishidan qat`iy nazar o`z kasbiga mehr va sadoqat bilan yondashib faoliyat olib borsa yuksak samaralarga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. SH. R.Baratov ,L.Y.Olimov , O.R.Avezov. ,, Umumiy psihologiya’’427-428.
2. K. Shokarimova (2020) Pedagogik qobilyat va pedagogik mahoratning ta`lim -tarbiya berishdagi ahamiyati.